

HARBIY VATANPARVARLIKNI SHAKLLANTIRISHDA KOOPERATIVLIK VA KOMPETETIVLIKNING MUTANOSIBLIGI

Djurabayev Rustam Turabbayevich

O’zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Malaka oshirish instituti

Jangovar tayyorgarlik sikli o’qituvchisi, podpolkovnik

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqolada harbiy vatanparvarlik tushunchasi, uning shakllanishi va jamiyat taraqqiyotidagi o’rni tahlil etilgan. Asosan, harbiy vatanparvarlikni shakllantirishda kooperativlik (hamkorlik) va kompetetivlik (raqobatbardoshlik) tushunchalarining o’zaro uyg‘unlashuvi muhimligi asoslab berilgan. Oilaviy tarbiya, ta’lim tizimi, muddatli harbiy xizmat hamda jamiyat va ommaviy axborot vositalarining bu jarayondagi roli bat afsil yoritilgan. Shuningdek, harbiy xizmatda kooperativlik va kompetetivlikning muvozanatli qo’llanilishi bo’linmalarining jipsligini saqlash hamda harbiy xizmatchilarini kasbiy jihatdan kamol toptirishga xizmat qilishi ta’kidlangan.

Maqolada harbiy soha mutaxassislarining ushbu ikki tushuncha bo’yicha ilmiy yondashuvga ehtiyoji borligi qayd etilib, harbiy vatanparvarlikni rivojlantirishga qaratilgan amaliy takliflar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Harbiy vatanparvarlik, milliy g’urur, kooperativlik, kompetetivlik, harbiy xizmat, jamiyat, ta’lim.

KIRISH

Vatan - bu inson va uning avlod-ajdodlari kindik qoni to’kilgan muqaddas dargohdir. Vatan - bu ajdodlar maskani, el-yurt, xalq voyaga yetgan, uning tili, tarixi, madaniyati, urfatatlari, qadriyatları chinakamiga shakllanib, o’sib, kamol topib boradigan zamindir. “Hozir O’zbekiston deb ataluvchi hudud, ya’ni bizning vatanimiz nafaqat Sharq, balki umumjahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo’lganligini butun jahon tan olmoqda. Bu qadimiy va tabarruk tuproqdan allomalar, fozilu-fuzalolar, siyosatchilar, sarkardalar yetishib chiqqan. Diniy va dunyoviy ilmlarning asoslari ana shu zaminda yaratilgan”. Darhaqiqat, vatan deganda, hamisha o’zimiz tug’ilib o’sgan, ko’z ochib ko’rgan, ta’lim-tarbiya olib voyaga yetgan, necha-necha avlodu ajdodlarimiz yashab o’tgan, ularning aql-idroki, mehnati sarf qilingan yurt ko’z oldimizga keladi. Vatan ona kabi aziz va mukarramdir. Vatan insonga baxt-iqbol beradigan zamindir. Vatan - bu xalqning o’tmishi, buguni va kelajagidir. Vatan - muqaddas qadriyat. Taraqqiyot vatandan boshlanadi. U insonning kindik qoni to’kilgan joy, insonni ijtimoiy yetimlikdan asrovchi manzil, ma’naviy kamolot va fuqarolik maydoni, hayot maktabi, farovonlik va baxt-saodat o’chog’idir. Har bir g’oya va mafkura asosida Vatan yotadi. Vatan – har bir o’zligini anglagan, avlod va ajdodlarini qadrlagan kishining eng muqaddas joyidir. Inson o’zining ma’naviy kamolotini yuksaltirish uchun yuksak mas’uliyatni his etishi, o’z manfaatlarini Vatan va xalq manfaatlari bilan uyg‘unlashtirib yashashi asosida vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantiradi. Vatanparvarlik kishining o’zi

tug‘ilib o’sgan, kamol topgan joy, zamin, o’lkaga bo‘lgan muhabbatini, munosabatini ifoda etadigan ma’naviy axloqiy fazilatdir [1].

Hadisi Sharifda ham “Vatanni sevmoq – iymondandur” deb da’vat qilinadi. Vaholanki, o’tmishda jahon sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo’shgan xalqning bugungi avlodlari, o’z meroslarining jahon xalqlari tomonidan e’tirof etilishini ta’kidlab o’tish joizdir, zero ularda bu kabi his – tuyg‘ular milliy g‘urur hamda ruhiy barkamollikka yetaklaydi, milliy o’zligini anglashga intilishini kuchaytiradi [2].

Harbiy vatanparvarlik jamiyat taraqqiyotining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, yosh avlodning mamlakatga sadoqatini oshirish, mudofaa qobiliyatini mustahkamlash va milliy birdamlikni shakllantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Zamonaviy dunyoda harbiy vatanparvarlikni rivojlantirishda ikki muhim tushuncha – kooperativlik (hamkorlik) va kompetetivlik (raqobatbardoshlik) o’zaro uyg‘unlashgan holda faoliyat yuritishi zarur. Mazkur ikki sifatning mutanosibligi, o’z me’yorida bo‘lishi harbiy xizmatchilar o’rtasidagi o’zaro munosabatlarning yanada barqarorlashuvida, bu esa o’z navbatida davlat harbiy quratining rivojiga salmoqli hissasini qo’shadi.

ASOSIY QISM

Harbiy vatanparvarlik – bu Vatan himoyasiga tayyorlik, milliy g‘urur, davlat manfaatlariga sadoqat va harbiy xizmatga bo‘lgan ijobjiy munosabatni o’z ichiga olgan tushuncha. Bu jarayon yosh avlodni tarbiyalashda, ayniqsa, ta’lim tizimi va harbiy xizmatga tayyorgarlik jarayonida katta ahamiyatga ega.

Vatanparvarlikni shakllantirishda oilaviy tarbiya, ta’lim tizimi, muddatli harbiy xizmat hamda jamiyat va ommaviy axborot vositalarining o’rni katta.

Oilaviy tarbiya orqali ota-onalar farzandlariga milliy qadriyatlar va vatanparvarlik ruhini singdirishi lozim. O’zbek jamiyatining urf-odatlari, milliy qadriyatları hamda turmush tarzini farzandlarga tanishtirish o’zbek xalqining o’ziga xosligi, dunyo miqyosida o’z o’rniga ega ekanligidan dalolat beradi. Bu orqali O’zbekistonning nufuzini yanada ko’klarga ko’tarish kabi yuksak motivning hosil bo‘lishiga zamin yaratadi.

Milliy ta’lim tizimimiz orqali maktab va oliy o’quv yurtlarida vatanparvarlik darslari, tarixiy bilimlarni singdirish muhim sanaladi. Bunda Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi ajdodlarimizning tarixdagagi jasoratlari, ularning bosib o’tgan yo’llari, avlodlarga atalgan o’gitlari bilan yosh avlodni tanishtirish yuqori samara beradi. Yosh qatlam vakillarida ulug‘ ajdodlarimizga taqlid qilish va ularning dunyo miqyosida Vatanimizni tarix zarvaraqlaridan o’rin egallashi uchun qilgan say-harakatlarini davom ettirish ishtiyoqi hosil bo‘ladi.

Muddatli harbiy xizmat omili ham yoshlarni jismoniy va ruhiy jihatdan harbiy tayyorgarlikka tayyorlashda muhim vositalardan biridir. Muddatli harbiy xizmat Vatar himoyasi uchun zarur bo‘lgan sifat va fazilatlarni shakllantirishda ulkan ahamiyatga ega maskan hisoblanadi. Muddatli harbiy xizmat yosh askarlarda Vatanga hurmat tuyg‘usini shakllanishida, Harbiy qasamyodga sodiqlikda, har qanday qiyinchilikni sabot bilan yengish sifatlarini hosil qilinishida, harbiy va davlat sirlarini ishonchli saqlash kabi fazilatlarda o’zining ijobjiy ta’sirini ko’rsatadi.

Jamiyat va ommaviy axborot vositalari esa milliy o’zlikni shakllantirishda va Vatanga bo’lgan muhabbatni oshirishda katta rol o‘ynaydi. Jamiyatda insonning ulg‘ayishida mislsiz ahamiyatga ega. Jamiyat orqali inson shakllanadi, rivojlanadi, takomillashadi, tajriba orttiradi. Shunday ekan, ulg‘aygan inson o‘zida bu o‘zgarishlarni his qilib, o‘sbi kelayotgan yosh avlodga ham shunday sharoit yaratishga harakat qiladi va jamiyat manfaatlarini ko‘z qorachig‘idek asrashga intiladi. Bu ham vatanparvarlikning ajralmas bir qismi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Ommaviy axborot vositalari esa vatanparvarlik xislatlarini namoyon etuvchi videoroliklar, motivatsion rasmlar, audiofragmentlar va boshqa materiallarni butun respublika bo‘ylab namoyish etish orqali katta qamrovdagi vazifani bajarishi mumkin. Ommaviy axborot vositalari hozirgi zamonaviy dunyoda keng qamrovga ega bo‘lgan kuch hisoblanib, bundan olti yil muqaddam Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan “Ommaviy axborot vositalari amalda “to‘rtinchi hokimiyat” darajasiga ko‘tarilishi zarur”, deya fikr bildirilgan [3].

Shuningdek, hozirda harbiy sohani tahlil qiladigan bo‘lsak vatanparvarlikni rivojlantirishda kooperativlik va kompetetivlik bir-birini to‘ldiruvchi tamoyillar hisoblanadi.

Kooperativlik – bu jamoaviy hamkorlik, birlashtirishda harakat qilish va milliy birdamlik tamoyillariga asoslangan tushunchadir. Shuningdek, ayrim manbalarda kooperativlikka – umumiy maqsad yo‘lida birlashtirishda harakat qilish yoki ishlashga tayyorlikni namoyon etish, deb ham ta’rif keltirilgan [4].

Kompetetivlik esa – shaxs yoki jamoaning o‘z qobiliyatlarini oshirish, raqobat muhitida yetakchilik qilish va o‘z mahoratini namoyon etish istagini anglatadi. Kompetetivlikka – “insonning boshqalardan ustun bo‘lish istagini o‘lchovchi mezondir, kompetetiv inson, g‘olib yoki mag‘lub aniq bo‘lmagan vaziyatlarda ham, uni raqobat sifatida qabul qilish ehtimoli yuqori bo‘ladi”, deb ham ifodalangan [5].

Har kuni insonlar raqobatlashish yoki hamkorlik qilish qarorini qabul qilishadi, bu esa muhim ijtimoiy tanlov hisoblanadi. Raqobat jamiyatning barcha sohalarida taraqqiyotni rag‘batlantirish uchun muhim bo‘lsa-da, hamkorlik uyg‘un o‘sish va rivojlanish uchun zarurdir [6].

Kooperativlik shaxsning natijalarini yaxshilashda kompetetivlik kabi samarali bo‘lishi mumkin. Ammo, kooperativlik kompetetivlikka nisbatan kamroq stress va fiziologik bosim keltiradi, shuning uchun individual samaradorlikni oshirish uchun sog‘lom va optimal usul sifatida qaralishi mumkin [7].

Hozirgi kunda tadbirkorlik (biznes) sohasi global rivojlanishda davom etmoqda. Shu munosabat bilan kapitalizm sharoitida biznes sohasiga tegishli bo‘lgan eng kichik detallarga ham alohida e’tibor berilmoqda. Aslida, ko‘plab manbalarni tahlil qilsak, kooperativlik va kompetetivlik sifatlarini asosan biznes sohasida uchratamiz. Zero, mazkur ikki sifat boshqa sohalarda ham o‘ziga xos ahamiyat kasb etmoqda [8].

Darhaqiqat, harbiy vatanparvarlikni shakllantirishda kooperativlik va kompetetivlik o‘zaro uyg‘unlashgan holda bo‘lishi kerak. Mazkur ikki sifat bir-biriga chambarchas bog‘liq bo‘lib, o‘zaro proporsionaldir. Harbiy xizmat – O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining

Qurolli Kuchlar safida umumiylar majburiyatni bajarish va harbiy xizmatni o’tash borasidagi davlat xizmatining alohida turi [2025-yil 14-fevraldagi O’zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Ichki xizmat nizomi] ekanligi belgilangan. Harbiy xizmat o’ziga xos xususiyatga ega bo’lib, uni kooperativlik va kompetetivliksiz tasavvur etib bo’lmaydi. Garchi harbiy xizmatchining bir o’zi barcha tomonlama kuchli bo’lsa ham, harbiy xizmat uyushgan holda faoliyat yuritishni taqozo etadi. Ya’ni, taktik harakatlarda, yoki seksiya, guruh, vzvod, batal’on bo’lib harakatlanishda bir kishining individual mahorati uncha ham katta rol o’ynamaydi. Shu sababli, kooperativlik xislatini takomillashtirish bo’linma oldiga qo’yilgan vazifalarni muvaffaqiyatli bajarishda o’zining samarali ta’sirini ko’rsatadi. Ammo, kooperativlik xislatiga me’yordan ortiq e’tibor berilishi shaxsiy tarkibning tashabbuskorligi va mustaqilligiga jiddiy zarar yetkazishi tabiiy holdir. Chunki, xizmat vazifasi tezkor vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilishni taqozo etsa kooperativlikning me’yorida ortiq shakllanishi natijasida hal qiluvchi qarorni kim qabul qilishi kerakligida shaxsiy tarkibning bir-birlarini kutish kabi noxush holatlarga, bu esa o’z navbatida jangovar vazifalarni bajarishda muvaffaqiyatsizlikka olib kelishi mumkin.

Kompetetivlik xislati ham, harbiy xizmatchilar uchun muhim ahamiyatga egadir. Kompetetivlik xislati orqali harbiy xizmatchilar o’zaro sog’lom raqobatni va samimiyatni saqlagan holda professional ko’rsatkichlarini anchayin yaxshilab oladilar. Raqobatning mavjudligi harbiy xizmatchilar o’rtasida o’z ustida muntazam ishlashni, shaxsiy tashabbuskorlikni va sifat jihatdan takomillashuvni vujudga keltiradi. Faqatgina kompetetivlik xislatini shakllantirishda komandirlar va boshliqlar tomonidan shaxsiy takib o’rtasidagi samimiyatni saqlab qola olsalargina ko’zlangan natijaga erishadilar. Aks kompetetivlik xislatini shakllantirishda me’yordan ortiq yondashilsa, harbiy xizmatchilar orasida egoism, shaxsiy manfaatlarni jamoa manfaatlaridan ustun ko’rish, bo’linmadagi mavjud umumharbiy qadriyatlarga mensimaslik, ularni nazar-pisand qilmaslik kabi noxush muhit shakllanadi. Bu esa o’z navbatida, jamoaviy birlik va hamkorlikka zarar yetishiga olib keladi.

Hozirgi kunda jamiyatimizda mazkur ikki xislatning o’zaro konfrontatsiyasiga guvoh bo’lishimiz mumkin. Shuningdek, harbiy soha vakillari ham bu jarayonni his qilmoqdalar. Biroq, bu psixologik jarayonga ilmiy yondashilmaganlik sabab, bu narsani tushuntirish, detallashgan tartibda idrok qilish muammosi o’z yechimini kutmoqda. Fikrimizcha, shaxsiy tarkib bilan ishlovchi harbiy komandirlar va boshliqlar kooperativlik va kompetetivlik xislatlarning muvozanatiga alohida e’tibor berishlari va balansda ushslashlari shart. Buning natijasida harbiy bo’linmada sifat ham, ijobiy muhim ham o’z hukmini suradi.

XULOSA

Harbiy vatanparvarlikni shakllantirish jarayonida kooperativlik va kompetetivlikning o’zaro uyg’unlashuvi juda muhim. Jamoaviy birlik va o’zaro hamkorlik harbiy xizmatning ajralmas qismi bo’lsa, shaxsiy raqobatbardoshlik va o’z ustida ishlash harbiy xizmatchining yanada kuchli va malakali bo’lishiga xizmat qiladi.

Shunday ekan, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash jarayonida, jamoaviy hamkorlikni rivojlantirish, harbiy va sport musobaqalari orqali raqobatbardoshlikni oshirish

kabi vazifalarni samarali hal etiladi. Aynan shu tamoyillar orqali harbiy vatanparvarlik kuchli va bardavom bo‘lishiga erishish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Yoshlarda harbiy vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirish omillari / Nabihev M.J. / Maqola, 2021 y.;
2. “Harbiy vatanparvarlik” - mактабгача та’лим ўюшдүрүлгөн болаларны “vatanparvar” көлөмдөнүү мүхим омылы / Maqola / Bujabayeva Z.D. / 2022 y., 184 б.;
3. <https://www.xabar.uz/uz/siyosat/oav-amalda-tortinchi-hokimiyat-daraja-siga-kotarilishi-zarur>;
4. <https://dictionary.cambridge.org/dictionary/english/cooperative>;
5. <https://www.goodtherapy.org/blog/psychpedia/competitiveness>;
6. Lerri Kets / Raqobat о‘rniga hamkorlik muvaffaqiyatga eltuvchi yo‘l bo‘lganda: Kontekstni tushunish va o‘zaro manfaatli vaziyatlarni aniqlash / Maqola / 2021;
7. <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S2589004224015177>;
8. Muallif fikri.